



**SUG'ORISHDA SUVDAN UNUMLI FOYDALANISH UCHUN SUV TEJAMKOR
TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH**

Sherboev Zohid Xonqulovich

ass:

Narzullayev Quvonchbek

"TIQXMMI" MTU Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar institutil. talaba:

Annotatsiya: Respublikamizda suv resurslaridan tejamli va samarali foydalanish asosida sug'oriladigan maydonlardan olinadigan hosil miqdorini oshirish, bu borada oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni kengaytirish, sifatini yaxshilash hamda ichki bozorni to'ldirish orqali mamlakat aholisining turmush darajasini yanada yaxshilash borasida samarali ishlar amalga oshirilishi. Bajarilgan ishlar natijasida suvni tezkor boshqarish va iste'molchilarga o'z vaqtida kafolatli yetkazib berish imkoniyati yaratilmoqda hamda sug'orish tarmoqlaridagi texnik yo'qotilishi va filtratsiyasi kamayishiga erishilayotgani.

Kalitli so'zlar: Dehqonchilik, qishloq xo'jaligi, resurs, innovatsi, texnologiya, daryo, kanal, suv manbalari, global, bioxilmassallik, gidrotexnik, rekonstruksiya.

KIRISH

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jalik mahsulotlarini ko'paytirishda ishlab chiqarish jaraenlarini intensivlashtirish, zamonaviy agrotexnologiya va innovatsion texnologiyalarni joriy etish, mehnat unumdarligini oshirish va ishlab chiqarish resurslaridan oqilona foydalanish hisobiga amalga oshirish mumkin. Dehqonchilik uchun ekin maydonlarini kengaytirish, qishloq xo'jaligi tarmog'i uchun talab etiladigan resurslar miqdorlarini oshirish imkoniyatlari o'ta chegaralanganligini uchun sohani rivojlantirishning birdan bir yo'li - fan va texnika yutuqlariga asoslanuvchi, innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy etish orqali erishiladi.

Dunyoning ko'pgina qismida, qolaversa, mintaqamizda, jumladan, mamlakatimizda ham suv resurslariga bo'lgan talab ortayotganligi bilan birga, suvning taqchilligi ham yildan yilga oshib bormoqda. 2000 yilgacha kam suvli mavsum har 6-8 yilda bir marta kuzatilgan bo'lsa, oxirgi yillarda bu jarayon har 3-4 yilda takrorlanmoqda. Bunda suv taqchillagini, ayniqsa, daryolarning quyi qismida hamda kanal va boshqa suv manbalaridan uzoqda joylashgan iste'molchilari chuqur his etmoqdalar.

Muammo: Suv tanqisligi muammosi mamlakatimiz uchun doimo dolzarb bo'lib kelgan. Ayniqsa so'nggi yillarda Orol fojiasi, global iqlim o'zgarishi natijasida yog'ingarchilikning kam bo'lishi mazkur masalaga yangicha yondoshishni taqozo qilmoqda. Mamlakatimizda 92% chuchuk suvi qishloq xo'jaligida foydalanadi. Uning sarfi juda yuqori bo'lib, bugungi kunda tejamkor texnologiyalardan foydalanmasa Markaziy Osiyoda suv taqchilligi bilan bog'liq ko'plab muammolar kelib chiqishi mumkin va ularning ko'pchiligi hozir mavjud: cho'llanishning kuchayishi, suvning ifloslanishi, bioxilmassallikning yo'qolishi.



Natija: Mamlakatimizda suvni tejashning bir qancha turlari yordamida bosqichma-bosqich zarur bo'lgan tadbirlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, har yili 5 ming km. dan ortiq sug'orish, 12 ming km kollektor-drenaj, 50 ming km ariq tarmoqlari tozalanayotgan bo'lsa, 200 km. dan ortiq kanallar, 30 km lotok va 500 km kollektor tarmoqlari, 400 dan ortiq gidrotexnik inshootlar va boshqa ko'pgina ob'ektlar rekonstruksiya qilinmoqda va qurilmoqda.

Shu bilan birgalikda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini diversifikatsiya qilinishi ham suvni tejalashiga ijobiy ta'sirini ko'rsatmoqda. Mustaqillik yillarida paxta, sholi kabi suvni ko'p talab qiluvchi ekinlar qisqartirilib, o'rniga boshqolli don, sabzavot-poliz ekinlari va bog'uzumzorlar maydoni kengaytirildi. Jumladan, 80 yillarga nisbatan paxta maydonlari qariyb 50 foizga, sholi maydonlari esa 75 foizga qisqartirildi.

Sug'orishni sharbat oqizib tashkil etish va qator orasiga o'z vaqtida ishlov berish, suvni tashlama va zovurga behuda tashlab qo'yish, ko'llatib va zaxlatib sug'orishga yo'l qo'ymaslik ham o'z samarasini beradi.

Mamlakatimizda suv tejovchi texnologiyalarning bir qancha turlari qo'llanilib, ular quyidagilar:

1. Egatga pylonka to'shab sug'orish;
2. O'qariqlar o'rniga egiluvchan plenkali quvurlardan foydalanish;
3. Tuproq ostidan sug'orish texnologiyasini qo'llash, dalaga suv berish miqdori 25–30 foizgacha kamayadi, egat olinmaydi;
4. Yomg'irlatib sug'orish (bunda asosan bir yillik ekinlar sug'oriladi).
5. Tomchilatib sug'orish.

Tomchilatib sug'orishda suv o'simlikka shlanglar vositasida yetkazib berilganligi uchun dala tuprog'i qotmaydi, natijada tuproqni yumshatishga (kultivatsiya) va ariq olishga hojat qolmaydi. Tuprog'i qotmagan maydon esa mavsum oxirida oson haydaladi.

O'g'it suv bilan birga berilganligi bois, o'g'itlash uchun texnika ishlatishning zaruriyati yo'qoladi.

Tomchilatib sug'orish tizimini qurish uchun suv nasosi, filtr hovuz-tindirgich, o'g'itlovchi moslama, magistral va tarqatuvchi quvurlar, sug'orish shlanglari, tomizgichlar, yordamchi va o'lovchi qismlar kerak bo'ladi. Bundan tashqari qurilish ishlari va loyihani tuzish xarajatlar kiritiladi.

2013–2014 yillarda o'tkazilgan tadqiqot ishlariga asosan bir gettar maydonga o'rtacha 6–7 mln so'm atrofida mablag' sarflanadi.

Respublikamizda ushbu texnologiya uchun talab etiladigan 95 foiz jihoz va anjomlari chiqariladi. Bundan 5–6 yil burun mamlakatimiz sharoitida tomchilatib sug'orish tizimining ba'zi qismlarini ishlab chiqaruvchi bиргина Saniplast qo'shma korxonasiда ishlab chiqarilgan bo'lsa, hozirgi kunga kelib bunday korxonalar soni bir qadar ko'paydi.

Agar suv nasosi "Suvmash" zavodida tayyorlansa, filtr, har xil diametrdagi plastik quvurlar, shlangalar, yordamchi va ulovchi qismlar "Sho'rtangazkimyo", "Maxsuspolimer", "Jizzaxplasmassa" va boshqa korxonalarda ishlab chiqilmoqda. Eng asosiysi avvallari to'liq chetdan keltirilgan tomizgichlar (kapelnitsalar) endilikda o'zimizda "Pipelain texnologisi" (Toshkent sh.), "Agroplast montaj servis" (Namangan viloyati) korxonalarida ishlab chiqarilmoqda.



Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini oshirishda sug'orishning suvni tejaydigan ilg'or texnologiyalarni qo'llash muhim ahamiyatga egaligini hisobga olib, davlatimiz rahbariyati tomonidan ushbu yo'nalishni rivojlantirish qo'llab-quvvatlanmoqda.

Jumladan, 2013–2017 yillar davomida jami 25 ming hektar maydonda tomchilatib sug'orish tizimi, 45,6 ming hektar maydonda egatga pylonka to'shab sug'orish usuli hamda 34 ming hektar maydonda esa o'qariqlar o'rniغا ko'chma egiluvchan quvurlar yordamida sug'orish usullari joriy etilishi belgilangan.

Davlat dasturiga kiritilgan tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy qilish loyihalarni amalga oshirishda fermer xo'jaliklari va boshqa yer egalariga Sug'oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash Jamg'armasining kredit liniyasi hisobidan respublika bo'yicha 10 mldr so'm mablag' ajratildi. Mazkur mablag'lar tijorat banklari orqali yillik 6 foizlik imtiyozli kredit sifatida taqdim qilinishi belgilangan.

Bugungi kunda 2015 yil Davlat dasturiga kiritilgan har bir loyihani tahlil qilib, joriy qiladigan maydonlarda tomchilatib sug'orish tizimi loyihasini ishlab chiqish hamda quruvchi pudratchi tashkilotlarni aniqlash bo'yicha ishlar olib borilmoqda.

Mamlakatimizda suv tejovchi texnologiyalarni keng joriy qilinishi, buning uchun davlat tomonidan yaratilayotgan qulayliklardan foydalanish qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini rivojlantirish va xalqimiz turmush farovonligini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi deb o'ylaymiz. 2020 yilning o'zida qo'shimcha 133 ming hektar maydonda suvni tejaydigan texnologiyalar joriy etildi. 2021 yilda xalqaro tashkilotlar grantlarini jalg qilib, har bir hududda lazerli uskuna yordamida ekin maydonlarini tekislash hisobiga suv sarfini kamaytirish bo'yicha bittadan namunaviy loyihani amalga oshirsin deb ta'kidladi yurboshimiz.

Xulosa: Ushbu texnologiya boshqa sug'orish usullaridan farqli jihatlari:

- yuqori samaradorligi, ya'ni suv resurslari tanqisligi sharoitida kam suv sarflab barqaror yuqori hosil olish imkonini berishi;
- tuproqning namligi va uni yaratish uchun berilayotgan suvni boshqarish mumkinligi, ya'ni suv har bir ekinning ma'lum davrdagi ehtiyojiga mos ravishda dala bo'ylab bir tekis taqsimlanishi;
- ekin ildizi rivojlanadigan tuproq qatlamida o'simlik uchun maqbul bo'lgan suv-fizik muhit yaratilishi.

Tomchilatib sug'orishda quyidagilar hisobiga suv tejaladi:

- sug'orish rejimini o'simlikning suvgaga bo'lgan talabiga mosligi;
- tuproqdan bug'lanadigan suvning kamligi;
- suvning dala bo'ylab tarqalmasligi va tuproqqa singib ketmasligi;
- suv oqavaga tashlanmasligi.

Tomchilatib sug'orish natijasida boshqa sug'orish usullariga nisbatan 20 foizdan 60 foizgacha suv tejaladi. Suvni tejash har birimizning burchimiz. Aynan har bir odamning bu boradagi harakati, ya'ni suvni tejashda, uni ifloslantirishni oldini olishda, ekologik va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashdagi faoliyati muammoni hal etishga yordam berib, farzandlarimizga farovon va ekologik jihatdan toza dunyon qoldirishga imkon yaratadi.



ФОЙДАЛАНИЛГАН АДАБИЁЛАР:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 11 dekabrdagi “Qishloq xo‘jaligida suvni tejaydigan texnologiyalarni joriy etishni yanada jadal tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2013 yil 21 apreldagi “2013–2017 yillar davrida sug‘oriladigan yerlarning meliorativ holatini yaxshilash va suv resurslaridan oqilona foydalanishni yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qaror.
3. Toshboev A.J. Kichik biznesni boshqarish.-T: TIMI, 2015. -415b.
4. Gapparov F., Sarmonov N. COMPUTATIONAL ANALYSIS OF THE DEPENDENCE OF THE AMOUNT OF EVAPORATION IN THE RESERVOIRS OF TALIMARJON AND HISORAK ON THE DEPTH OF WATER IN THE RESERVOIR //Galaxy International Interdisciplinary Research Journal. – 2023. – T. II. – №. 6. – C. 141-150.
5. Abdirazzokov AI, Sherboev ZX, Sarmonov NO YERLARNING MELIORATIV HOLATINI YAXSHILASHDA MELIORATIV QUDUQLARNING AHAMIYATI //Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities. – 2023. – T. II. – Yo‘q. 4. – S. 2021-2025 yillar.
6. Gapparov, F. va Sarmonov, N. (2022). TALLIMARGON Suv OMBORI YUZASIDAN BOLADIGAN BUGLANISHLAR TAGLILI VA INSHOOT ISHONCHLI ISHLASHINING ASOSIY OMILLARI. Innovatsion texnologiyalar ,1 (04), 45-47.
7. Gapparov, F. va Sarmonov, N. (2022). TALLIMARGON Suv OMBORI YUZASIDAN BOLADIGAN BUGLANISHLAR TAGLILI VA INSHOOT ISHONCHLI ISHLASHINING ASOSIY OMILLARI. Innovatsion texnologiyalar ,1 (04), 45-47.
8. Sherboev Z. X. va boshqalar KANALLARNI ISHONCHLILI ISHLASH SHARTLARI //PEDAGOGIKA FANLARI VA O‘QITISH METODLARI. – 2023. – T. 3. – Yo‘q. 28. – 77-82-betlar.